



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

|| 2021  
maxsus son

DJURAYEV Risbay  
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.  
O'z MAA dan 2007 yil 3-yanvarda  
№ 0101-tartib raqami bilan  
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltirilganda  
«Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Sherzod SHERMATOV  
Uzoqboy BEGIMQULOV  
Alisher UMAROV  
Nargiza RAXMANQULOVA  
Xolboy IBRAGIMOV  
Shavkat QURBONOV  
Roxatoy SAFAROVA  
Islom ZOKIROV  
Dono G'ANIYEVA  
Lobar QARAXANOVA  
Dusmurod DJURAYEV*

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI  
Tel.: (71)-245-92-34  
(93)-503-52-07  
e-mail: uzluksitztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **S.T.Turg'unov**  
Uzluksiz ta'lrim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash
- 9 **A.G.'Turg'unboyeva**  
O'smirlilik davrida xarakter aktsentuatsiyasi va xarakternig shakllanishi
- 13 **M.A.Maxsudova**  
Turli yosh davrlarida muloqotning rivojlanishi
- 17 **Z.B.Kurbanova**  
Bolalar ijtimoiylashuvini tashxis qilish uzluksiz ta'lrim samaradorligi omili sifatida
- 21 **Yo.T.Djumanazarov**  
Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning ayrim psixologik aspektlari
- 25 **S.Yu.Akbarov**  
Kattalarga ta'lrim berish samaradorligini oshirish – yangi davr talabi sifatida
- 28 **A.A.Xusanov**  
Bo'lgusi o'qituvchi-logopedlarni inklyuziv ta'lrim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida
- 32 **D.D.Oriboyeva**  
Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari
- 36 **M.B.Badritdinova**  
O'smirlarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari
- 40 **Z.O.Rahmatullayeva**  
Bolalarda emotsiunal intellektni shakllantirishning samarali omillari
- 44 **D.H.Ergasheva**  
O'quv-bilish faoliyati muhitida bola mustaqilligining psixologik xususiyatlari
- 48 **D.H.Ergasheva**  
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari
- 52 **N.O.G'aniyeva**  
O'smirlilik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi
- 56 **N.A.Vaxobova**  
Oilada bolani maktab ta'limga «shaxs» sifatida tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
- 60 **I.P.Mansurova**  
Особенности типов темперамента и их влияние на профессиональное самоопределение личности
- 64 **Sh.J.To'uchiyeva**  
Psixologik mahoratli o'qituvchi – davr talabi
- 68 **M.Abdullayeva, N.Abdullayeva**  
Oiladagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi
- 72 **M.Abdullayeva, D.Abdullayev**  
O'smirlarni sport musobaqalariga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari
- 76 **Z.B.Kurbanova, M.N.Rustamova**  
O'quvchilar kreativ qobiliyatini o'rganishning diagnostik vositalari
- 80 **Sh.B.Tursunova**  
O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari
- 84 **Sh.B.Tursunova**  
O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasi rivojlantirishida kreativ muloqot omillari
- 88 **A.A.Soliyev, M.Y.Mirvaliyeva**  
O'smirlar sotsial statusini shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar
- 92 **G.Tulyaganova**  
Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik xususiyatlari
- 96 **O.R.Nabiyeva**  
Reproduktiv yoshdagi ayollar ruhiyatida kuzatiladigan o'zgarishlar
- 101 **M.N.Rustamova**  
Pedagogik faoliyat samaradorligining psixologik omillari
- 104 **G.Sh.Tursunova**  
Egotsentrizm shaxs xususiyati sifatida
- 108 **A.N.Qurbanboyev**  
O'zini o'zi faollashtirish psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida
- 112 **D.B.Toshpo'latova, N.Maxmudova**  
Oliy ta'lrim muassasalari maktabgacha ta'lrim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari



## **OLIY TA'LIM MUASSASALARI MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI**

**D.B.TOSHPO'LATOVA,**  
*NamDU maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi*

**N.MAXMUDOVA,**  
*Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

*Maqola maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish zaruratiga bag'ishlangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarida talabalar faoliyatini muvofiglashtirish, maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini tashkil etishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondashuvni joriy etish asosida ta'lism va tarbiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashning amaliy ahamiyati ilmiy asoslangan.*

**Kalit so'zlar:** tizim, tizimli yondashuv, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlari, tashkil etuvchi qismlar, bo'g'inalar, innovatsion faoliyat, imumiylik, universallik, differentsiyallik, komponentlar, boshqaruvin, funktsional vazifalar, algoritm.

*Статья посвящена необходимости совершенствования процессов подготовки обучающихся направления дошкольного образования к педагогической деятельности, в которой научно обоснована практическая значимость обеспечения взаимосвязи и взаимосвязи процессов обучения и воспитания на основе координации деятельности обучающихся в процессах подготовки обучающихся направления дошкольного образования к педагогической деятельности, внедрения системного подхода, имеющего свои особенности в организации процессов подготовки обучающихся направления дошкольного образования к педагогической деятельности.*

**Ключевые слова:** система, системный подход, педагогическая деятельность, процессы подготовки к педагогической деятельности, составляющие части, звенья, инновационная деятельность, общность, универсальность, дифференциальность, компоненты, управление, функциональные задачи, алгоритм.

*The article is devoted to the need to improve the processes of preparing students of the direction of preschool education for pedagogical activity, in which the practical significance of ensuring the interrelation and interrelation of the processes of teaching and upbringing is scientifically justified on the basis of coordinating the activities of students in the processes of preparing students of the direction of preschool education for pedagogical activity, the introduction of a systematic approach that has its own characteristics in the organization of the processes of preparing students of the direction of preschool education for pedagogical activity.*

**Key words:** system, system approach, pedagogical activity, processes of preparation



*for pedagogical activity, components, links, innovative activity, generality, universality, differentiability, components, management, functional tasks, algorithm.*

Tizimli yondashuv pedagogik jarayonlar samaradorligini o‘rganishda o‘ziga xos yaxlitlik, umumiylit, universallit, differentsiallit kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya’ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Universal tushunchalar apparati, abstraktsiyaning yuqori darajasi, asosiy tamoyillarning integrativ xususiyatlari – sub’ektlarning turli sohalar bo‘yicha tushunchalari, fikrashi va dunyoqarashini o‘rganishning samarali usuli sifatida tizimli yondashuvni qo‘llash imkoniyatini yaratadi [5, 30-b.].

Zero, tizimni vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etuvchi faoliyat algoritmi hamda tizim komponentlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarining asosiy shakllarini tizim komponentlari sifatida, barcha ta’lim va tarbiya jarayoni shakllari majmuuni tizim sifatida ko‘rib chiqib, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini tashkil etishga tizimli yondashuv texnologiyasini ma’lum bir algoritm tatbiq etish zarur.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va baoshqarish jarayoniga tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish algoritmini ishlab chiqishda barcha shakllardagi ta’lim va tarbiya jarayonlarining aloqalari va o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni bir butun, ya’ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Algoritmnini ishlab chiqishda alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan komponentlar o‘rtasidagi aloqalar hamda o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari sifatida inobatga olinadi, chunki har bir komponent yaxlit tizimning o‘zgarishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Tizimli yondashuv texnologiyasini ma’lum bir algoritm asosida tatbiq etishda eng avval talabalar uchun (maktabgacha ta’lim tashkilotlariga) ekkskursiya tashkil etiladi hamda ta’lim va tarbiya jarayonilarini yaxlit, bir butun dinamik tizim ko‘rinishida tasavvur qilinib, ta’lim va tarbiya jarayonlari shakllarini tanlashda va pedagogik jarayonlarni loyihalashtirishda mavzularning izchilligi asosida integratsiyalashuvi orqali, ya’ni har bir mavzuni o‘zidan oldin turuvchi mavzuning mazmun mohiyatiga ko‘ra o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishini inobatga olinishi zarur.

Demak, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga



tayyorlash jarayonlarini tashkil etishga tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etishda birlamchi ekskursiya talabalar uchun birinchi kursda pedagogik fanlarni o‘qitishdan oldin tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ekskursiya jarayoni ham maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimining komponenti hisoblanib, mazkur jarayonda maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida qo‘yilayotgan talablar, bakalavr malaka darajasiga ega bo‘lgan pedagoglar faoliyat ko‘rsatayotgan lavozimlar va ularning funksional vazifalari, hamkorlikdagi faoliyat jarayonlaridagi ishtiroki, ularning boshqaruv faoliyatidagi muammolar bilan talabalar yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Oldindan shakllantirilgan algoritmga ko‘ra maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarida birlamchi ekskursiyani tashkil etish va kelgusi bosqichlarda, ya’ni dars jarayondalarida talabalarning sub’ektivligi va faolligini oshirish hamda ularning kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi shakl va metodlarni qo‘llash barcha uchun qulay bo‘lgan refleksiv-ta’limiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ma’lum bir algoritmga ko‘ra tizimli yondashuv texnologiyalarini tabaqlashtirilgan bosqichlar asosida tatbiq etishda bo‘lajak tarbiyachilarining pedagogik faoliyat yo‘nalishidagi boshlang‘ich tasavvuri, tushunchalari hamda qiziqishlari darajasi inobatga olinishi muhim. Tabaqlashtirilgan yondashuvlarni tatbiq etishda ta’lim va tarbiya jarayonlarida sub’ekt-sub’ekt munosabatlarni o‘zaro ta’sir jarayonini vujudga keltirish asosida shakllantirish pedagogikfaoliyatga talabalarning qiziqishini rivojlantirishga yuqori darajada ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimining yana bir komponenti hisoblangan seminar mashg‘ulotlarini talabalar tomonidan mustaqil ravishda o‘rganilgan tushunchalar, shuningdek, ma’ruzalar jarayonida berilgan ma’lumotlar asosida tashkil etishda trening muhim ahamiyat kasb etib, bunda talabalarning faol ishtirok etishi, berilgan topshiriqlarni ijobiy yechimini topish qobiliyati, ishtirokchilar va hamkorlar bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish rag‘batlantirilishi zarur.

Yuqorida keltirganimizdek, seminar-trening mashg‘ulotlarida ham o‘zaro ta’sir jarayonini vujudga keltirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, ya’ni mazkur jarayonda talabalar vaziyatlarga bog‘liq holda muloqotning turli xil uslublaridan foydalanishni o‘rganadi, kommunikativ ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtiradi, eng asosiysi



talabalarda insonlar bilan muloqot qilish, o‘zining kommunikativ uslublarini ishlab chiqish va individualligini anglash kabi ko‘nikmalar shakllanadi va pedagogik faoliyatga qiziqishlar shakllanadi. Dars va darsdan tashqari jarayonlarda talabalarining faolligini ta’minlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o‘rtoqlari bilan bevosita muloqotga kirishishga undash, o‘z fikrini erkin bildirishi uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida aqliy hujum, g‘oyalar konferensiyasi kabi metodlardan foydalanish ham talabalarda boshlang‘ich pedagogik faoliyat ko‘nimalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarida ishchanlik o‘yinlari nostandard masalalarni hal etish yo‘nalishida fikrlashga o‘rgatuvchi, talabalarda ijodiy sifatlarni shakllantiruvchi faol metodlardan biri hisoblanib, bunda ta’lim jarayoni mantiqiy va emotsiyonal fikrlashning uzviy birligi va o‘zaro ta’siri asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimining komponentlari hisoblangan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash jarayonlari ham talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari bo‘yicha mavzularni shakllantirishda ham talabalarining nazariy tushunchalarini amaliyot bilan integratsiyasini ta’minlaydigan topshiriqlarni inobatga olinishi muhim hisoblanadi.

### **Foydalilanligan adabiyotlar**

1. Anoxin P.K. Uzlovie voprosi teorii funktsional’noy sistemi. – M.: Nauka, 1990. – S. 23.
2. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
3. Kuxarev N.V., Reshet’ko V.S. Diagnostika pedagogicheskogo masterstva i pedagogicheskogo tvorchestva. – Minsk, 1996. – 162 s.
4. Suxobskaya G.S., Gorbunova L.L. Vzaimosvyaz’ teorii i praktiki v protsesse podgotovki i povisheniya kvalifikatsii pedagogicheskix kadrov. – M.: NII IOO APN, 1990. – 92 s.
5. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: “Fan”, 2008. – 441 s.